

## TOSHKENT SHAHRIDA MICE TURIZMNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI KENG IMKONIYATLAR VA MAVJUD TO'SIQLAR

**Xalilova Gulnoza Nurullo qizi**

*Oriental universiteti o'qituvchi-stajyori, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchisi (PhD)*

gulnoza888894@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Toshkent shahrida MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) turizmini rivojlantirish uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar hamda ushbu sohani rivojlantirish jarayonida uchrayotgan muammolar va to'siqlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari Toshkent shahrining Markaziy Osiyoda yetakchi MICE markaziga aylanish salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** *Ishbilarmonlik turizmi, konferensiyalar, ko'rgazmalar, turizm infratuzilmasi, imkoniyatlar, takliflar, xalqaro aloqalar.*

## ШИРОКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И СУЩЕСТВУЮЩИЕ БАРЬЕРЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ДЕЛОВОГО ТУРИЗМА В ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ

**Халилова Гульноза Нурулло кизи**

*Стажёр-преподаватель университета "Ориентал", самостоятельный  
соискатель (PhD) в Ташкентского государственного экономического  
университета*

gulnoza888894@gmail.com

**Аннотация:** В данной статье представлен углубленный анализ широких возможностей, создаваемых для развития MICE-туризма (встречи, поощрительные поездки, конференции, выставки) в Ташкенте, а также проблем и препятствий, встречающихся в процессе развития этого сектора. Результаты исследования показывают, что Ташкент обладает высоким потенциалом для того, чтобы стать ведущим MICE-центром в Центральной Азии.

**Ключевые слова:** *Деловой туризм, конференции, выставки, туристическая инфраструктура, возможности, предложения, международные отношения.*

## BROAD OPPORTUNITIES AND EXISTING BARRIERS FOR THE DEVELOPMENT OF MICE TOURISM IN TASHKENT CITY

**Khalilova Gulnoza Nurullo kizi**

*Teacher-intern at Oriental University, independent researcher (PhD at Tashkent State University of Economics*

*gulnoza888894@gmail.com*

**Abstract:** This article provides an in-depth analysis of the vast opportunities created for the development of MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) tourism in Tashkent, as well as the problems and obstacles encountered in the process of developing this sector. The results of the study show that Tashkent has a high potential to become a leading MICE center in Central Asia.

**Keywords:** *Business tourism, Tashkent city, conferences, exhibitions, tourism infrastructure, opportunities, proposals, international relations.*

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–217-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga ko‘ra, iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim sektori sifatida turizm sohasining tizimli va barqaror rivojlanishini ta‘minlash, sohada davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda milliy turistik mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta‘minlash masalalari haqida muhim topshiriqlar tegishli mas‘ullar zimmasiga yuklandi. Bundan tashqari 2026-yil 1-apreldan boshlab xalqaro konferensiyalar va tadbirlarni (*MICE turizm*) tashkil qilib, unga kamida 100 nafar chet ellik turistni jalb qilgan tadbirkorlik sub’yektlariga ushbu tadbirlarni tashkil qilishda ular tomonidan to‘langan QQS summalarining 50 foizini qaytarish tartibi joriy etilishi ko‘zda tutildi [1].

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida ishbilarmonlik aloqalarining kengayib borishi MICE turizmning jadal rivojlanishiga, turistlarning soni oshib borishiga olib kelmoqda. MICE turizm – bu nafaqat turizmning alohida yo‘nalishi, balki iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalarni jalb etish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashning muhim vositasidir. Jahon tajribasiga ko‘ra, MICE sayyohlari oddiy sayyohlarga nisbatan bir necha baravar ko‘proq mablag‘ sarflaydi, bu esa hudud iqtisodiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasida turizmni diversifikatsiya qilish siyosati doirasida MICE turizm istiqbolli yo‘nalish sifatida belgilangan. Ayniqsa, Toshkent shahrining poytaxt sifatidagi mavqei, rivojlangan infratuzilmasi va qulay geografik joylashuvi uni xalqaro ishbilarmonlik tadbirlari

uchun muhim markazga aylantirish imkonini beradi. So‘nggi yillarda Toshkentda xalqaro forumlar, biznes sammitlar va ko‘rgazmalar soni ortib borayotgani buning yaqqol dalilidir.

Shu bilan birga, MICE turizmni rivojlantirishda qator tizimli muammolar mavjud bo‘lib, ular sohaning to‘liq salohiyatini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi Toshkent shahrida MICE turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ushbu sohadagi asosiy to‘siqlarni ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI**

MICE turizmi — bu oldindan rejalashtirilgan holda ko‘p sonli odamlarni uchrashuvlar, rag‘batlantiruvchi sayohatlar, konferensiyalar va ko‘rgazmalar doirasida birlashtiradigan biznes turizm shaklidir [2].

“MICE turizmi — bu asosiy maqsadi uchrashuv, konferensiya yoki rag‘batlantiruvchi safarda qatnashish bo‘lgan, ammo qo‘shimcha ravishda turistik tajriba ham o‘z ichiga olgan safar shaklidir [3]”

“Business Travel and Tourism” (Sally Davidson va Brent W. Ritchie, 2021) kitobida ishbilarmonlik tadbirlari iqtisodiyotga, mehmonxona xo‘jaligiga va xalqaro aloqalarga qanday ta‘sir ko‘rsatishi tushuntiriladi [4].

“Conferences and Conventions: A Global Industry” (Tony Rogers, 2020) asarida konferensiya va ko‘rgazmalar haqida batafsil ma‘lumot berilgan: ularni qanday tashkil etish, qanday natijalar berishi va innovatsiyalarning ahamiyati yoritilgan [5].

World Tourism Organization (UNWTO)ning “Global Trends in MICE Tourism” (2022) hisobotida MICE turizmidagi zamonaviy tendensiyalar, jumladan, raqamlashtirish, gibrid formatlar va ekologik mas‘uliyat masalalari ko‘rsatib berilgan [6].

“The Future of Corporate Events” (John Smith, 2019) ishida esa virtual reallik, tadbirlarni shaxsiylashtirish kabi yangi texnologiyalar va ularning korporativ tadbirlar kelajagiga ta‘siri tahlil qilingan [7].

## **METODOLOGIYA**

Mazkur maqolada MICE turizmni rivojlantirish borasidagi tadqiqot ishlari o‘rganildi hamda mavjud muammolar, ulardagi dolzarb muammolar va yechimlar bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil va sintez, statistik tahlil, taqqoslash usuli, normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bugungi kunda ushbu dinamik bozor har yili 610 million ish safari va qariyb 430 milliard dollarlik moliyaviy oborotni ta‘minlaydi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra,

2025-yilga kelib MICE sanoatining rentabelligi 5 baravar oshadi ya'ni yiliga 2 trillion dollargacha etishi mumkin. Umumiy nisbatda ish safarlarining umumiy tarkibi quyidagi shaklga ega: individual xizmat safarlari – 71%, Kongress va konferensiyalarda qatnashish – 16%, ko'rgazmalarga tashrif buyurish – 11%, insentiv turizm-umumiy hajmning taxminan 2% ini tashkil etadi [8].

Toshkent shahrida MICE turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavzusidagi olib borilgan tahlillar Toshkent shahrida MICE turizmni rivojlantirish uchun quyidagi asosiy imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi:

1. Transport-logistika infratuzilmasining rivojlanganligi. Toshkent xalqaro aeroporti zamonaviy talablarga javob beradi va Yevropa, Osiyo hamda MDH davlatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri havo qatnovlarini amalga oshiradi.

2. Xalqaro darajadagi mehmonxonalar tarmog'i. Toshkentda Hilton, Hyatt Regency, Wyndham, Radisson, Lotte kabi mehmonxonalar faoliyat yuritib, yirik konferensiya va forumlarni qabul qilish imkoniyatiga ega.

3. Konferensiya va ko'rgazma infratuzilmasi. "Uzexpocentre", "Congress Hall", "CAEx Uzbekistan" kabi majmualar MICE tadbirlarini o'tkazish uchun muhim baza hisoblanadi.

4. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Vizani soddalashtirish, xorijiy investorlar uchun imtiyozlar va turizm sohasiga qaratilgan davlat dasturlari MICE turizmni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

5. Madaniy va tarixiy resurslar. Ishbilarmonlik tadbirlarini madaniy dasturlar bilan uyg'unlashtirish Toshkentning jozibadorligini oshiradi.

Hozirgi kunda MICE turizmni rivojlantirishda bir qancha muammolar hamda to'siqlarga duch kelish mumkin. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- MICE sohasida professional menejerlar va tashkilotchilar yetishmasligi;
- xalqaro standartlarga mos yirik ko'rgazma maydonlarining cheklanganligi;
- Toshkent shahrining xalqaro MICE bozorida yetarli darajada brend sifatida targ'ib etilmaganligi;
- xizmatlar sifati va narxlarining barqaror emasligi;
- raqamli marketing va zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahrida MICE turizmni rivojlantirish uchun obyektiv shart-sharoitlar mavjud. Biroq mavjud muammolarni bartaraf etmasdan turib, ushbu sohani barqaror rivojlantirish qiyin. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, MICE turizmni rivojlantirishda inson kapitali, marketing va infratuzilma hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, Toshkent shahrida MICE turizmni rivojlantirish uchun maxsus strategiya ishlab chiqish, kadrlar tayyorlashni kuchaytirish va xalqaro ko'rgazmalarni jalb etish muhim hisoblanadi.

2025-yilda jami 11,7 mln nafar chet el fuqarosi turistik maqsadlarda O‘zbekistonga tashrif buyurdi, deya xabar berdi Milliy statistika qo‘mitasi [9]. Bu ko‘rsatkich 2024-yilning mos davri bilan solishtirilganda qariyb 3,7 mln nafarga yoki 46,8 foizga oshgan. Quyidagi 1-jadvalda 2024–2025-yillarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni mamlakatlar kesimida jadval ko‘rinishida keltirilgan.

### 1-jadval

#### 2024-yil va 2025-yillarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan chet el fuqarolarining mamlakatlar kesimida o‘zgarishini tahlili<sup>1</sup>

Mamlakat	2024-yil (nafar)	2025-yil (nafar)	O‘zgarish (nafar)	O‘sish (%)
Qirg‘iziston	2 330 000	3 300 000	+970 000	+41,6 %
Tojikiston	2 320 000	2 700 000	+380 000	+16,4 %
Qozog‘iston	1 480 000	2 700 000	+1 220 000	+82,4 %
Rossiya	788 000	984 000	+196 000	+24,9 %
Afg‘oniston	73 000	476 000	+403 000	+552 %
Turkmaniston	198 000	370 000	+172 000	+86,9 %
Xitoy	74 000	279 000	+205 000	+277 %
Turkiya	119 000	175 000	+56 000	+47 %
Hindiston	71 000	81 000	+10 000	+14 %
Janubiy Koreya	41 000	46 000	+5 000	+12 %

Mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Umumiy ko‘rsatkich 2025-yilda 11,7 mln nafarni tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2024-yilda – 8 mln nafarni tashkil etgan. O‘sish sur’ati+46,8 % ni tashkil etgan.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Toshkent shahrida MICE turizmni rivojlantirish yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘lgan istiqbolli yo‘nalishdir. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va aniqlangan to‘siqlarni bartaraf etish orqali Toshkentni mintaqaviy va xalqaro miqyosda raqobatbardosh MICE markaziga aylantirish mumkin.

- Toshkent shahrida MICE turizm bo‘yicha maxsus *Convention Bureau* tashkil etish;
- oliy ta’lim muassasalarida MICE menejmenti bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash;
- yirik xalqaro ko‘rgazma va kongress markazlarini barpo etish;
- Toshkentni Markaziy Osiyodagi MICE markazi sifatida brendlash;
- raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarni joriy etish.

<sup>1</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika-ma'lumotlari> asosida muallif ishlanmasi

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi ‘‘Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PF–217-son Farmoni//O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti// <https://president.uz/oz/lists/view/8692>
2. <https://uzbekistan.travel/uz/v/hodisalar-turizmi/>
3. G.N.Xalilova, A.R.Rashidov. MICE turizm va distribyutsiyaning chambarchasiligi//‘‘Raqamli iqtisodiyot’’ ilmiy-elektron jurnali 11-son, 2025-yil
4. Davidson R., Cope B. "Business Travel and Tourism" (2021).
5. Rogers T. "Conferences and Conventions: A Global Industry" (2020).
6. UNWTO Report "Global Trends in MICE Tourism" (2022).
7. Smith J. "The Future of Corporate Events" (2019).
8. O‘zbekiston turistik tashkilotlari uchun ilk marta MICE-turizm bo‘yicha mahorat darsi o‘tkazildi // elektron resurs // <https://daryo.uz/2019/08/11/o%25ca%25bbzbekiston-turistik-tashkilotlari-uchun-ilk-marta-mice-turizm-bo%25ca%25bbyicha-mahorat-darsi-o%25ca%25bbtkazildi>
9. <https://kun.uz/news/2026/02/14/yoshlardan-keksagacha-2025-yilda-turistlar-yoshi-boyicha-taqsimot-elon-qilindi>